

## KASB-HUNAR MAKTABLARIDA O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH.

**Murodova Nafisa Mizrobovna**

*Buxoro tuman kasb-hunar maktabi informatika va axborot texnalogiyalari fani  
o'qituvchisi*

Respublika iqtisodiyotining barqaror va jadal taraqqiyotini ta'minlashda kelajak uchun keng qamrovli, oqilona asoslangan ustivor vazifalar va yo'nalishlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning reja va dasturlari ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimizda shakllantirilayotgan, ko'pgina jabhalarda chuqurlashib borayotgan yangicha bozor munosabatlari uzlusiz ta'limga tizimiga, shu jumladan iqtidorli, tashabbuskor yuqori malakali kadrlar soni va salohiyatini oshirishga xizmat qilayotgan Professional ta'limga muassasalari faoliyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash davrida fuqarolar daromatlari, turmush darajasi va respublikada ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, natijada yurtimiz mustaqilligini mustahkamlash, xalqimiz farovonligini yuksaltirish maqsadida aholi bandligini ta'minlash uchun yangi ish o'rinnari yaratish, mehnat sharoitlarini yaxshilash bilan birgalikda mehnat resurslari intellectual salohiyatini oshirish vazifalari ham bugunning dolzarb ahamiyat kasb etuvchi masalalari qatoridan o'rinni egallaydi.

Respublikada kasb-hunar maktablariga abiturientlarning hujjatlarini qabul qilish hamda ro'yxatdan o'tkazishda Oliy ta'limga fan va innovatsiyalat vazirligining kasb-hunar maktablari uchun kasb.edu.uz onlayn elektron platformasi ishga tushirildi. 2023-yilda professional ta'limga muassasalari bilim oluvchilarini ro'yxatga olish tizimini yo'lga qo'yish maqsadida backoffice.prof.edu.uz elektron platformalar yo'lga qo'yildi va shu platforma orqali bitiruvchilarning professional ta'limga tizimini bitirganligi to'g'risidagi hujjatlari tayyorlanib, bitiruvchilarga tarqatiladi.

Hozirgi global mashuv va tezkor axborot almashinuv sharoitlarida har qanday tashkilot, korxona va muassasaning zamon talablariga mos ravishda rivojlanishi xodimlarning keng dunyoqarashi va masuliyatliligi, eng muhimi, rahbar va jamoadagi yuqori malakali kadrlarning bilimi, ko'nikmasi iqtidori, ma'naviyati, boshqaruv qobiliyat, ilmiy salohiyati va boshqa xususiyatlariga bevosita bog'liqdir. Professional ta'limga muassasalarida raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ulardan yurtimiz osoyishtaligi va obodligi, xalqimiz farovonligi yo'lida maqsadli foydalanish qatiy raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyotining asosiy talablaridan biridir. Chunki yuqorida keltirilgan global masalalarning ijobiy hal etilishida mamlakatimizning ulkan ilmiy, ijodiy, intellektual va mehnat salohiyatining tarkibiy qismi bo'lgan. Mustaqillik yillaridan hozirga qadar professional ta'limga muassasalarini bitirib, mehnat bozorida bozor iqtisodiyoti talablariga amal qilib, tashkilotlarda samarali mehnat ko'rsatib kelayotgan yuqori malakali kadrlarning o'rni ahamiyatlidir. Keyingi yillarda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustivor yo'nalishlari hamda

xalqaro standartlar talablariga mos keladigan professional ta'limgiz tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Yoshlarimizni to'g'ri kasbga yo'naltirish, bu eng muhim vazifalardan biri ekanligini inobatga olgan holda kasb-hunar maktablarida qabul jarayonlarini tashkil etishda hududdagi infra tuzilmadan kelib chiqqan holda hududuy korxonalarining ishchi xodimlarga bo'lган ehtiyoji asosida kasb yo'nalishlari belgilanadi bu esa kelgusida kasb-hunar bitiruvchilarini ish bilan ta'minlanishini zamin yaratadi. Inson to'g'ri kasb tanlash orqali o'z oilasiga, jamiyatiga juda katta naf keltirishi isbot talab qilmaydigan qonuniyatdir. Shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi zamon globollashuv sharoitida axborot texnologiyalari vositasida kadrlar tayyorlash muhim o'rinni tutadi. Zero kundalik hayotimizda iqtisodiyotda, ishlab chiqarishda va hayot faoliyatimizning barcha sohalarida axborot texnologiyalaridan keng foydalanishimiz muqarrardir.

Hozirgi kunda ta'limgiz jarayonida interfaol metodlar, innovastion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lган qiziqish kundan-kunga kuchayib bormoqda. Innovatsion texnologiyalar, pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniadi. Interfaol metodlar pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'limgiz mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi — ular faqat pedagog, o'quvchi va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi-talabani dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga yo'llash;
- o'quvchi-talabalarning o'quv jarayonida bilimga bo'lган qiziqishlarining doimiy ravishda bo'lishini ta'minlash;
- o'quvchi-talabaning bilimga bo'lган qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirish;
- pedagog va o'quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatining tashkil etilishi.

Yangi pedagogik texnologiyaning afzalligi zamon sinovidan o'tib, interfaol darsning sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi o'z isbotini topmoqda.

Xalqimizning dono fikri bor, ya'ni ming marta eshitgandan ko'ra, bir marta ko'rgan afzaldir. Demak, zamonaviy darslarni o'tishda, xoh u ona tili fani bo'lsin, xoh matematika, xoh chet tili bo'lsin o'quvchiga ko'rgazmali tarzda, o'qituvchining o'zi ijod qilgan holda axborot texnologiyalaridan foydalanib dars o'tsa, menimcha fanga qiziqmaydigan o'quvchini ham qiziqtira olish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2017 yil 23 dekabr
2. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari talabalarning kreativlik qobiliyatlapini rivojlantirish. I Monografiya. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2016. -77-b.
3. Mochalova N.M. Maktabning metodik ishini tashkil etishning innovatsion yondashuvlari: O'quv qo'llanma. - Ufa, 2002. - 86 bet Slastenin V.A., Podimova L.S. Pedagogika: innovatsion faoliyat. - M., 1997y